

## SUITSIDAL XULQGA QARSHI CHORALAR

**Xolbo‘tayev Xudoybergan**

Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi  
Farg‘ona davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarning oldida turgan dolzARB muammolardan biri bu o‘z joniga qasd qilish hisoblanadi. Bunday noxush holatlarning aksar qismi o‘smirlarda sodir etilinilayotgani esa juda achinarli. Ushbu maqola o‘smirlardagi suitsidal xulq va uning profilaktikasini nazariy tarzda tahlil qilishga bag‘ishlanagan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smir shaxsi, suitsidal xulq, ruhiy buzilish, profilaktik choralar.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili bir millionga yaqin insonlar o‘z joniga suiqasd sodir etib turar ekan, suitsidal xatti-harakatlarga urinish holatlari esa bundan 10-20 baravar ko‘pligi ro‘yxatga olingan. Oxirgi yillarda o‘z joniga suiqasd qilish holatlari 13-16 yoshgacha o‘smirlar orasida ikki barobardan ortiq bo‘lib, suitsidal xulq-atvorning barqaror “yosharish” an’anasi kuzatilmoqda . O‘smirlik davriga xos suitsidal xulq-atvorning asosida ta’lim-tarbiya jarayonidagi noto‘g‘ri pedagogik-psixologik ta’sir, o‘smirning shaxslilik xususiyatlari va emotsiyal holatlaridagi salbiy o‘zgarishlarga ota-onalar, pedagoglar, o‘smirning tengdoshlari tomonidan yetarli e’tibor berilmasligi sababli yuzaga kelgan ijtimoiy dezadaptatsiya, ijtimoiy integratsiyaning pasayishi va beqarorligi yotadi. O‘smir va uning ijtimoiy atrof-muhitdagi o‘zaro munosabatlarining buzilishi, shaxslararo aloqalarning qiyinlashuvi, ota-onalar, ta’lim muassasalari xodimlari tomonidan sub’ekt ehtiyojlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda o‘tkazilgan bosim, ularda hayot mazmuni, xavfsizlik va “kerak”lilik hissining yo‘qolishi, ko‘pincha suitsidal xulq-atvor namoyon bo‘lish sabablaridan biridir .

Suitsidal xulq muamosini o‘rganish, uning oldini olish borasida O‘zbekistonda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.Axunjanova, N.Sog‘inov, E.Usmonovlar o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda suitsid muammosining umumiyl tavsifi, xotin-qizlar o‘rtasidagi o‘z joniga suiqasd qilish holatlarining ijtimoiy-psixologik sabablarini tahlil etib, o‘smir qizlarda o‘z joniga suiqasd qilish muammolariga alohida e’tibor qaratganlar. B.M.Umarov bolalar va o‘smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan mutaxassislardandir .

Barcha davlatlarda ushbu muammoning o‘rganilishi katta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Chunki o‘smirlarning ta’lim-tarbiyaviy ishlariga mutasaddi xodimlarning faqat ayrimlarigina: a) o‘smirlarning pubertat davri xususiyatlari; b) ruhiy zo‘riqish holatlari; v) o‘smirlilik davrining depressiyasi; g) kattalar bilan yuzaga keladigan o‘zaro nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etishning tarbiyaviy usul hamda vositalari to‘g‘risida zarur ma’lumotga egadirlar. O‘smirlar ham o‘zlarining yosh xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarga, tengdoshlariga yordam berish ko‘nikmalariga ega bo‘lmaganliklari tufayli noxush vaziyatlarda o‘rtog‘ini o‘z joniga suiqasd qilishdan saqlab qolishga qodir emaslar.

O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki , o‘z joniga suiqasd qilish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi, ushbu yoshdagilar suitsidining psixologik, pedagogik profilaktikasi, diagnostikasi, korreksiysi amaliyotda keng qo‘llanilmayotganligi, o‘smirlar suitsidi va uning oldini olish to‘g‘risidagi axborotlarning yetishmasligi, ular o‘rtasida suitsidal faollikni cheklash va oldini olish tarbiyaviy chora-tadbirlari yetarli natijalar bermayotganligi mutaxassislar, olimlar tomonidan ta’kidlanmoqda.

Zamonaviy psixologiyada mavjud psixologik profilaktika amaliy va ilmiy nazariyalarga asoslangan bo‘lib, ta’lim muassasalari, oila, ommaviy axborot vositalari, jamoa va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, yoshlар ijtimoiy harakatlarining hamkorlikda amalga oshiriluvchi o‘zaro uzviylikdagi chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Psixologik tadqiqotlarda suitsidal urinishga aynan qaysi noto‘g‘ri tarbiyaviy ta’sir yoki deviant xulq ko‘rinishlari sabab bo‘lganligi to‘liq aniqlanmagan. Shu bois suitsidal faollik rivojlanish xavfi mavjud guruhlarga taalluqli bo‘lgan pedagogik-psixologik korreksion dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlar o‘smirlarning o‘z xulq-atvorini nazorat qilishga ko‘maklashish, muqobil ijtimoiy muhit bilan aloqasini tiklash va rivojlantirishning pedagogik- psixologik usul va vositalarini aniqlashga qaratilgan. Olib boriladigan psixoprofilaktik tadbirlarda o‘smirlarni uning atrofidagi shaxslarning salbiy ta’sirlaridan saqlash maqsadida psixologik–pedagogik xamda ijtimoiy ko‘mak berishda qaratilgan, ya’ni: a) oila, mahalla, o‘quv guruhi, sinf va pedagogik jamoa, ommaviy axborot vositalari; b) o‘smirlar shaxslararo munosabatlari asosiy qirralariga ta’sir qiluvchi ta’lim va tarbiya sharoitlarini optimallashtirishdan iborat.

Demak, psixoprofilaktikaning asosiy maqsadi –o‘smirlarda suitsidal urinishlar sodir etilishiga olib keluvchi salbiy ijtimoiy- psixologik, pedagogik omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishning korreksion-tarbiyaviy tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi. O‘smirlar suitsidal urinishlarining maxsus profilaktikasi quyidagilarni qamrab oladi:

- suitsidal muammolar to‘g‘risidagi mish-mishlarni tarqatib yuborish;

- o'smirlar suitsidal faolligini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy- psixologik vaziyatlarni tadqiq etish;
- suitsidal xavf darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar bilan korreksion- tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, ular bilan doimiy muloqot o'rnatish, muammolarni hamkorlikda muhokama qilish;
- suitsidal fikrlarni vujudga keltirish ehtimoli mavjud ommaviy axborot vositalari manbalarini tahrir qilish:
- milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar qiziqarli, ko'ngilochar dasturlarning suitsidal xulq-atvorli o'smirlar bilan o'tkaziladigan psixoprofilaktik tadbirlar rejalariga kiritilishi, ularning atrofidagi insonlar bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatishlari, suitsidal faollikka olib kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy dezadaptatsiya holatlarini bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlar bilan olib boriladigan psixoprofilaktik ishlar umumiy yo'naliشining asosiy mazmunini jamoada suitsidogen sharoitining saqlanib qolishi, suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga imkon tug'diruvchi pedagogik -psixologik, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni zaiflashtirish va bartaraf etish tashkil qilishi lozim. O'smir o'z tengqurlari, jamoa hayoti va faoliyatida faol ishtirok etib, jamoa manfaatlarini ko'zlab yashashga hamda o'z xatti-harakatlarini ana shu jamoaga bo'ysundirishga o'rganadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ахунжанова С.А. ва бошқалар “Шахс инқироз ҳолатлари ижтимоий-психологик сабабларини ўрганиш ва уларни бартараф этиш” - Тошкент: 1997 йил, 15-б.
2. Шоумаров Ф.Б., Соғинов Н.А., Қодиров У.Д., Палуанова З.Д., Суицид ҳолатларини тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар / Услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси маҳалла ва оиласи қўллаб-кувватлаш вазирлиги хузуридаги «Маҳалла ва оила» илмий-тадқиқот институти. – Тошкент: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. –144 б.
3. Yuldasheva M.B., Ergashova Z.T. Socio-psychological support adolescents with accentuations of character and aggressivness. International Journal on Integrated Education (IJIE). Vol. 4 No. 2, 2021. P. 363-366
4. [www.medportal.ru](http://www.medportal.ru)